

KONFERENSIYALAR.UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

I RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

MAY, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.uz>

<https://sp-press.uz>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, 7-may

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 137 bet.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025>

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz> | <https://sp-press.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 7-may, 2025-yil

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzARB muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.

© "Sciences problems team" MChJ, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

BIOLOGIYA FANLARI

Боймуродов Ҳусниддин, Пардаев Юнус, Ҳафизова Малика APORRECTODEA ROSEA (SAVIGNY, 1826) ЁМФИР ЧУВАЛЧАНГИНИНГ ТАРҚАЛИШИ ВА ЭКОЛОГИЯСИ.....	6-9
--	-----

-TEXNIKA FANLARI

Инагамов Бобур СИФАТ МЕНЕЖМЕНТИ ВА СЕРТИФИКАТЛАШТИРИШ СОҲАЛАРИДА АМАЛИЙ ТАЖРИБАГА АСОСЛАНГАН ТАЪЛИМНИ ШАКЛАНТИРИШ: ДУАЛ ТАЪЛИМ МОДЕЛИ: КОРХОНА ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК.....	10-13
--	-------

TARIX FANLARI

Umarov Sardor GERMANIYANING ILMIY-MADANIY TARAQQIYOTIDA O'ZBEKISTON VA GERMANIYA XALQ DIPLOMATIYASI DOIRASIDAGI HAMKORLIGINING O'RNI	14-21
--	-------

Suyarov Maxmudjon ELLINIZM DAVRIDA YUNON YOZUVINING O'RTA OSIYODAGI MAHALLIY TILLARGA TA'SIRI.....	22-27
--	-------

IQTISODIYOT FANLARI

Madartov Bahrom PAXTA TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	28-31
--	-------

Mahsudov Muzaffar DIGITAL TRANSFORMATION AS A CATALYST FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	32-35
---	-------

Axmedov Latayibxon AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA O'Z KAPITALI HISOBI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI	36-39
--	-------

G'afurova Dilshoda OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	40-43
--	-------

FALSAFA FANLARI

Danabayev Xurshid KAMBAG'ALLIK TUSHUNCHASINING IJTIMOIY – FALSAFIY MOHIYATI.....	44-47
---	-------

Norliyev Rustam INSON VA JAMIYAT O'RTASIDAGI MUVOZANAT: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL	48-51
---	-------

FILOLOGIYA FANLARI

Abdubannojeva Aziza PSIXOLINGVISTIK TAHLIL METODLARI	52-54
---	-------

Abdumajitov Khurshid THE PHENOMENON OF ANTONYM IN THE LEXICON OF SUMMER SPORTS IN ENGLISH AND UZBEK.....	55-57
--	-------

Asqaraliyeva Dilshoda

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDAN MUMTOZ ADABIYOTDA FOYDALANISH VA ULARNING TARBIYAVIY-AXLOQIY XUSUSIYATLARI 58-60

Исматова Наталья

ИСТОКИ ВОЗНИКОВЕНИЯ ОБРАЗА ИСТОРИЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ 61-65

YURIDIK FANLAR

Холов Уткир

ҚОНУНИЙ КУЧГА КИРГАН СУД ҲУЖЖАТЛАРИНИ ЯНГИ ОЧИЛГАН ҲОЛАТЛАР БҮЙИЧА ҚАЙТА КЎРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ 66-69

Otamirzayev Oybek

YER OSTI SUVLARI HOLATIDA HUQUQIY BIR NAZAR 70-73

Ergashova Shahrizoda

TRIPS VA WIPO SHARTNOMALARI DOIRASIDA RAQAMLI AKTIVLAR HUQUQIY MAQOMINING EVOLYUTSIYASI 74-76

Burxonov Shahzod

XALQARO MEHNAT TASHKILOTI VA UNING XALQARO MEHNAT STANDARTLARINI ISHLAB CHIQISHDAGI O'RNI 77-80

PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor

O'QUV FAOLIYATI TAMOYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 81-83

Исмагилова Мадинабону

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ОТЕЧЕСТВЕННОГО И ЗАРУБЕЖНОГО ИНТЕРЬЕРНОГО ДИЗАЙНА 84-86

Olimov Talat

O'QITUVCHILARDA MEDIASAVODXONLIK KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI 87-89

Kamolova Umida

O'QUVCHILARDA ESTETIK DIDNI SHAKLLANTIRISHDA POETIK TAHLILLAR 90-92

TIBBIYOT FANLARI

Tursunova Laylo, Qilichov Sherbek

SURUNKALI BUYRAK KASALLIKLARI BOR BEMORLARDA ARTERIAL GIPERTENZIYANING RIVOJLANISH MEXANIZMI VA BUYRAKLARNING FUNKSIONAL FAOLIYATIGA TA'SIRI 93-102

Сафоева Саломат

КЛИНИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ЛЕЧЕНИЯ ПАЦИЕНТОК С ПОЛИКИСТОЗОМ ЯИЧНИКОВ АССОЦИРОВАННЫМ С ГИПОФУНКЦИЕЙ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ 103-106

Ergashev Bekzod

JINSIY XROMOSOMALarda GENLARNING ANORMAL KO'RINISHI 107-112

<i>Jurayeva Gulasalxon</i>	
REVMATOID ARTRIT BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA SURUNKALI BUYRAK KASALLIKNING RIOVLANISH XAVF OMILLAR, KASALLIKNING TARQALGANLIGI VA BUYRAKLAR ZARARLANISH VARIANTLAR	113-121
<i>Ro'zumbetova Safura, Umarova Zamira</i>	
PODAGRIK NEFROPATIYADA BUYRAKLARNING SHIKASTLANISH MEXANIZMI	122-127
FARMATSEVTIKA FANLARI	
<i>Shakirova Dinora, Xabibullayeva Shoira</i>	
DETERMINATION OF THE ANTIMICROBIAL EFFECT OF DRIED RASPBERRY LEAVES	128-132
PSIXOLOGIYA FANLARI	
<i>Bekmuratova Xalima</i>	
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMİK LITSEY O'QUVCHILARIDA KASBIY MOTIVATSİYANI SHAKLLANTIRISH: İJTIMOIY MUHİTNİNG TA'SIRI.....	133-136

TRIPS VA WIPO SHARTNOMALARI DOIRASIDA RAQAMLI AKTIVLAR HUQUQIY MAQOMINING EVOLYUTSIYASI

Ergashova Shahrizoda Elbek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

E-mail: shahrizam406@gmail.com

Tel: +998 94 379 22 06

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tezisda TRIPS bitimi va WIPO shartnomalari doirasida raqamli aktivlarning huquqiy maqomining shakllanishi va evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Raqamli kontentning intellektual mulk obyektlari sifatida rivojlanishi, ularning muhofazasi bilan bog'liq xalqaro normalar, xususan TRIPSning 10-moddasi hamda WCT va WPPT kabi qo'shimcha shartnomalar kontekstida yoritiladi. Shuningdek, raqamli obyektlarga nisbatan mualliflik huquqi, patent huquqi va savdo belgilariiga oid huquqlarning tatbiq etilishi, ularning chekllovleri va zamonaviy muammolari tahlil qilinadi. Tezisda ushbu shartnomalarning zamonaviy texnologiyalar sharoitida qanday yondashuvlarni shakllantirgani va ularning huquqiy moslashuvchanligi baholanadi. Asosiy e'tibor raqamli aktivlarga nisbatan xalqaro huquqiy mexanizmlarning evolyutsiyasi, ularning qo'llanilishidagi tafovutlar va huquqiy bo'shlqlarni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: raqamli aktivlar, intellektual mulk, TRIPS bitimi, WIPO shartnomalari, mualliflik huquqi, raqamli kontent, huquqiy maqom, xalqaro huquq.

EVOLUTION OF THE LEGAL STATUS OF DIGITAL ASSETS WITHIN THE FRAMEWORK OF TRIPS AND WIPO AGREEMENTS

Ergashova Shahrizoda Elbek qizi

Master's student, Tashkent State University of Law

Abstract. This thesis analyzes the formation and evolution of the legal status of digital assets within the framework of the TRIPS Agreement and WIPO treaties. It examines the development of digital content as objects of intellectual property, and the international legal norms governing their protection — particularly Article 10 of the TRIPS Agreement, and additional treaties such as the WCT and WPPT. Furthermore, the application of copyright, patent, and trademark law to digital objects is assessed, along with their limitations and contemporary legal challenges. The thesis evaluates how these treaties adapt to modern technological realities and their legal flexibility. The primary focus is placed on the evolution of international legal mechanisms regarding digital assets, their implementation challenges, and the identification of existing legal gaps.

Keywords: digital assets, intellectual property, TRIPS Agreement, WIPO treaties, copyright, digital content, legal status, international law.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-17>

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti zamonaviy huquqiy munosabatlarga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, intellektual mulk huquqi sohasida yuzaga kelayotgan yangi obyektlar — raqamli aktivlar — ularni huquqiy jihatdan tartibga solishning yangi yondashuvlarini talab qiladi. An'anaviy mulk obyektlari bilan solishtirganda, raqamli aktivlar bevosita inson ijodiy faoliyatining mahsuli bo'lishi, cheksiz ko'paytirilishi va tezkor tarqatilishi bilan ajralib turadi. Bu esa ularning huquqiy maqomini aniqlash va xalqaro miqyosda himoya qilish masalasini dolzarb muammoga aylantirgan.

Raqamli aktivlarga nisbatan mualliflik huquqi, patent huquqi yoki boshqa intellektual mulk institutlarining qanday tatbiq etilishi yuzasidan hozirgacha yagona yondashuv mavjud emas. Aynan shu bois, TRIPS bitimi va Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan qabul qilingan qo'shimcha shartnomalar, xususan WIPO Copyright Treaty (WCT) va WIPO Performances and Phonograms Treaty (WPPT) kabi hujatlar orqali raqamli obyektlarga

nisbatan muhofaza choralarini takomillashtirishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlar kuzatilyapti. Mazkur tezisda ushbu shartnomalar doirasida raqamli aktivlar huquqiy maqomining shakllanishi va evolyutsiyasi tahlil qilinadi.

Raqamli aktivlar zamonaviy huquq tizimida intellektual mulk obyektlarining yangi shakli sifatida shakllandı. Ularning tarqalish sur'ati, texnologik asoslari va turfa funksional xususiyatlari raqamli aktivlarni huquqiy jihatdan to'g'ri tasniflash va samarali himoya qilish zaruratini keltirib chiqarqan. Mazkur jarayon xalqaro miqyosda, ayniqsa, TRIPS bitimi va WIPO shartnomalari orqali bosqichma-bosqich tartibga solinmoqda. Ushbu xalqaro huquqiy asoslar raqamli kontentga nisbatan mualliflik huquqini tatbiq etish, raqamli vositalar bilan bog'liq nusxa ko'paytirishni nazorat qilish va yaratuvchilik faoliyatini rag'batlanirishga xizmat qiladi.

TRIPS bitimi — "Intellektual mulk huquqlarining savdo bilan bog'liq jihatlari to'g'risida bitim" (1994) — jahon intellektual mulk tizimida muhim burilish yasadi. Mazkur bitimning 10-moddasida kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazalari mualliflik huquqi bilan himoya qilinishi qat'iy belgilangan. Bunda kompyuter dasturi "adabiy asar" sifatida e'tirof etilgan bo'lib, uning original ifoda shakli muhofaza obyekti sifatida baholanadi [1; TRIPS, mod. 10]. Bu tamoyil raqamli obyektlarning intellektual mulk obyektlari qatoriga qo'shilishini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi.

Shu bilan birga, 1996-yilda qabul qilingan WIPO Copyright Treaty (WCT) va WIPO Performances and Phonograms Treaty (WPPT) shartnomalari TRIPS bitimining umumiy qoidalarini raqamli muhitga moslashtirishga qaratilgan bo'ldi. WCT shartnomasining 8-moddasiga ko'ra, mualliflar o'z asarlarini "raqamli tarmoqlar orqali ommaga yetkazish" huquqiga ega bo'lishi, ushbu tarqatish jarayonlari esa faqat muallif ruxsati bilan amalgalashirilishi kerakligi ta'kidlangan [2; WCT, art. 8]. Mazkur norma raqamli kontentni internet orqali ko'paytirish va ulashish bilan bog'liq huquqiy xavflarning oldini olishga qaratilgan.

WIPO ekspertlari fikricha, ushbu ikki shartnoma raqamli asarlarni huquqiy muhofazaga olishda "yangi davrni boshlab bergan" bo'lib, ular orqali kompyuter dasturlari, elektron kitoblar, raqamli san'at asarlari va internetga joylashtirilgan boshqa kontentlar uchun universal muhofaza mexanizmlari ishlab chiqilgan [3; WIPO, 2022]. Shu bilan birga, bunday evolyutsiya bir qator yechilmagan masalalarni ham yuzaga chiqardi. Eng katta muammo — bu raqamli obyektlar ustidan egalik va mualliflik huquqining o'zaro chegaralarini aniqlashda namoyon bo'lmoqda.

Masalan, raqamli aktivlarning oson nusxalanishi va global raqamli platformalarda chegarasiz tarqatilishi mavjud intellektual mulk tizimlarini zaiflashtirmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlar mualliflik huquqi tamoyillariga to'g'ri kelmasligi, bu obyektlar ustidan inson muallifning mavjud emasligi sababli huquqiy bo'shliq paydo qilmoqda. O'zbekiston qonunchiligidagi ham ushbu masala yaqqol ifoda etilgan: "Texnika vositalari yordamida yaratilgan mahsulotlar mualliflik huquqi obyektlari hisoblanmaydi" [4; O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2006, mod. 8].

Raqamli aktivlar bo'yicha xalqaro huquqiy evolyutsiyaning muhim jihat — bu ularning faqatgina mualliflik emas, balki patent, savdo belgisi va tijorat siri kabi boshqa huquqiy rejimlar bilan ham tartibga solinishi ehtimolidir. Masalan, raqamli kodlar, blokcheyn tizimlari va sun'iy intellekt algoritmlari texnik yechimlar sifatida patentlashtirilishi mumkin [5; B.35.]. Shu bois, hozirgi evolyutsiya bir yoqlama emas, balki kompleks yondashuvlar tizimi sifatida qaralmoqda.

TRIPS va WIPO shartnomalari raqamli aktivlarga huquqiy maqom berish borasida global standartlarni shakllantirdi. Ammo bu maqom hali to'liq aniqlashtirilmagan va yangi texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt rivoji, mavjud huquqiy modellarni qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Shuning uchun, zamonaviy xalqaro huquqda raqamli obyektlar evolyutsiyasi uzlucksiz tahlil, yangilanish va normativ izchillikni zarur etadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, TRIPS bitimi va WIPO shartnomalari raqamli aktivlar intellektual mulk huquqi tizimiga integratsiyalashuvi yo'lida global miqyosda mustahkam normativ asos yaratdi. Ayniqsa, WCT va WPPT shartnomalari orqali raqamli kontent ustidan mualliflik huquqining tatbiq etilishi va raqamli tarqatish vositalari ustidan nazoratning kuchaytirilishi hozirgi raqamli davr talablariga mos huquqiy mexanizmlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Biroq, texnologik taraqqiyot tezligiga nisbatan mavjud normativ bazaning muvofiqligi hali to'liq ta'minlanmagan.

Sun'iy intellekt, blokcheyn va metaverse kabi texnologiyalar natijasida yuzaga kelayotgan yangi turdag'i raqamli obyektlarning huquqiy maqomi, yaratuvchilik subyekti va egalik masalalari hali ham xalqaro huquqiy hamjamiyatda muhokama markazida turibdi. Bu esa mavjud xalqaro shartnomalarni qayta ko'rib chiqish, ularni zamonaviy texnologik voqelikka moslashtirish va raqamli aktivlarga nisbatan maxsus huquqiy institutlarni joriy etish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu asosda, xalqaro huquq tizimi oldida ikkita asosiy vazifa turibdi: bирinchidan, raqamli aktivlarning to'liq va aniqlangan huquqiy maqomini belgilovchi yangilangan hujjatlarni ishlab chiqish; ikkinchidan, sun'iy intellekt mahsulotlari va boshqa sun'iy yaratuvchanlik shakllarini intellektual mulk tizimida qay darajada subyekt sifatida tan olish mumkinligini belgilovchi nazariy-huquqiy mexanizmlarni yaratish. Aks holda, huquqiy bo'shiqliar raqamli iqtisodiyot rivojiga tahdid solishda davom etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS), 1994. Article 10. Available at: https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/27-trips_04b_e.htm
2. WIPO Copyright Treaty (WCT), 1996. Article 8. Available at: <https://www.wipo.int/treaties/en/ip/wct>
3. WIPO. Copyright and the Digital Environment: Guide for Policy Makers. Geneva: WIPO Publications. 2022.
4. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni. 2006-yil 20-iyul, № ZRU-42. <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>
5. Takenaka, T. Intellectual Property in the New Technological Age: AI, Algorithms, and Innovation. Oxford University Press. 2019. 35 b.